

STRUKTUR-SEMANTIK TUZILISH VA UNING TAVSIFI MASALASI XUSUSIDA

Kabulova U.S., ADCHTI

Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası professorı

Annotatsiya: Til – bu belgilar tizimi. Belgilar esa muayyan ma’noni va uni ifodalash vositasining umumlashmasidir. Insoniyat jamiyatida muloqot, o’zaro fikr almashinuvning ro’y berishi, ya’ni qanday vositalar bilan axborotni bir-birlariga uzatish, bu vositalarning paydo bo’lishi, ularning qanday qo’llanilishi, qanday o’zgarishlarga duchor bo’lishi haqidagi fan semiotika, struktur-semantik tuzilish haqida gap boradi.

Kalit so’zlar: struktura, semiotika, semantika, axborot, nazariya, sintaktik munosabat, belgilar tizimi, sistema, moddiy tuzilma.

Аннотация: Язык – это система символов. Символы представляют собой обобщение определенного значения и средства его выражения. Семиотика – это наука о общении, взаимном обмене идеями в человеческом обществе, т.е. о способах передачи информации друг другу, о возникновении этих средств, о том, как они используются и как они претерпевают изменения, речь идет о структурных-семантическая структура.

Ключевые слова: структура, семиотика, семантика, информация, теория, синтаксические отношения, знаковая система, система, материальная структура.

Abstract: Language is a system of symbols. Symbols are a generalization of a specific meaning and means of its expression. Semiotics is the science of communication, mutual exchange of ideas in human society, i.e. the means by which information is transmitted to each other, the emergence of these means, how they are used, and how they undergo changes, we are talking about the structural-semantic structure.

Key words: structure, semiotics, semantics, information, theory, syntactic relationship, sign system, system, material structure.

Amerika tilshunoslari til strukturasi nazariyasini dastlabki o’rinda gap strukturasi va uning vositasida yetkazilayotgan axborot nuqtayi nazaridan shakllantirdilar va o’rgandilar. Binobarin, 3.Harris gap strukturasi nazariy jihatdan muhim bo’lgan quyidagi asosiy xususiyatlarini qayd etadi:

- 1) so’zlarning gap strukturasi o’rin olishini qat’iy nazorat qiluvchi qoidalar majmuasining mavjudligi;
- 2) o’zaro sintaktik munosabatdagi so’zlarning matnda qo’llanish tartibining o’zgarishi ehtimoli (bunday o’zgarish matnda mavjud bo’lgan boshqa so’zlar ta’sirida yuzaga keladi);
- 3) axborot tashish jihatidan muhim va shu sababli matnda qo’llanishi shart bo’lgan ayrim so’zlarning tushib qolishi.

Muhim xususiyat sifatida qaralayotgan bu xususiyatlarning nisbatan oddiyligi va ularning gap tavsifi uchun yetarli ekanligi inobatga olinsa, til strukturasi uning voqeligi shartlari bilan bog’liqligini ko’rsatadi hamda bu holda tilning shakliy tuzilishi haqida biror-bir farqni olg’a surishga hojat yo’q.

Til – bu belgilar tizimi. Belgilar esa muayyan ma’noni va uni ifodalash vositasining umumlashmasidir. Insoniyat jamiyatida muloqot, o’zaro fikr almashinuvning ro’y berishi, ya’ni qanday vositalar bilan axborotni bir-birlariga uzatish, bu vositalarning paydo bo’lishi, ularning qanday qo’llanilishi, qanday o’zgarishlarga duchor bo’lishi haqidagi fan semiotika (grekcha «sema» – belgi) deb ataladi. Semiotika fanining asoschisi amerikalik faylasuf Ch.Pirs birinchilardan bo’lib, o’zi asoslagan fanning tekshirish obyektini (jamiyatda foydalanadigan turli belgilar sistemasi), belgilarning mohiyatini va o’zaro munosabatlarini aniqlab, tasnif qildi. Tilshunos olimlardan semiotika fanining rivojlanishiga Ferdinand de Sossyur katta hissa qo’shdi

. U tilni belgilar sistemasi sifatida ta’riflaydi. Agar Ch.Pirs semiotika fanining asoschisi hisoblansa, Sossyurni, tom ma’noda, tilni belgilar sistemasi sifatida o’rganadigan umumiy tilshunoslikning bir bo’limi – lingvosemiotika fanining asoschisi deb atash mumkin. Til belgisi moddiy tuzilmadir.

So’z belgisining asosiy farqlovchi xususiyatlaridan biri u ifodalaydigan ma’noning (ifodalanmishning) bosqichli tamoyil asosiga qurilganidir. Zero, har qanday so’z belgisi ifodalagan shakl fonemalardan, har qanday tilda chegaralangan miqdordagi «semasiologiyalashgan» (I.A. Boduen de Kurtene) tovushlardan tashkil topadi. Ular turli birikuvlar orqali obyektiv borliqdagi, inson faoliyatining barcha jihatlariga oid tushunchalarni nomlovchi birliklarni yasaydilar. So’z birligining quyi bosqichida turuvchi ishtirokchilari fonemalarning farqlovchi belgilari bo’lib, ular faqat perseptiv (his qilish, idrok qilish) funksiyangina emas, balki distinktiv (farqlovchi) funksiyani ham bajaradilar. Differensial belgili fonemalar o’ziga xos «belgilarning belgisi» (K.L.Byuler, O.S.Axmanova, Yu.S.Stepanov), «figuralar» (L.Yelmslev) deb ham talqin qilinadi.

Shunday qilib, so’z belgisi umumiy bilishga oid vazifadan tashqari, tilning kichik strukturaviy (fonema, morfema) va katta (so’z birikmalari, gap) birliklarini identifikatsiyalash (ajratish) vazifasini ham bajaradi. Bu birliklar til belgilarining murakkab tizimi sifatida ikki tomonlama ifodalanishi bilan xarakterlanadi, zero, ular dastlab vositalar sistemasida (predmet va hodisalarning ma’nosini anglatish uchun), keyin esa nutqda kommunikantlar o’rtasida axborot uzatish, pragmatik ta’sir o’tkazish uchun ishlatiladi (Makeyeva, Selenko 1998).

Lisoniy belgilar o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi va shuningdek, bir-biridan ajralgan holda ishlatilmaydi. Har qanday til elementi u yoki bu sistema, mikrosistema, qator doirasida sayqallangan namunalar asosida ikki turdagi strukturaviy o’zgarishlar, ya’ni paradigmatic va sintagmatic birikuv qonuniyatlariga ko’ra qo’llaniladi.

So’zlarning tematik guruhlari yoki semantik sath so’z orqali ifodalangan, ekstralingvistik umumiylikka asoslangan, ma’no jihatidan o’zaro bog’langan leksemalardan tashkil topadi. Bu masala M.M.Pokrovskiy, G.Ipsen, Y.Trir, L.V.Sherba, A.I.Smirnitskiy va boshqa olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. O’tgan asrdayoq rus tilshunosi M.M.Pokrovskiy «so’zlar va ularning ma’nolari bir-birlaridan ajratilgan holda yashamaydilar, biroq bizning ongimizga bog’liq bo’lmagani holda turli guruhlarga bo’linib birikadilar» degan edi (Pokrovskiy 1956: 176-177). A.I.Smirnitskiyning qaydicha, tilda «makon», «zamon», «son», «hayvonlar dunyosi» kabi keng tushunchalar mavjud bo’lib, ular sinflarga ajraladi». Lekin, shuning bilan birgalikda ushbu tematik sinflardagi so’zlarning ayrimlari, ko’p ma’nolilik xususiyatiga ega bo’lganligi sababli, turli semantik guruhlar tarkibiga kirish ehtimoli yo’q emas (Smirnitskiy 1965: 176-177).

Tilning tizimli va strukturaviy xususiyatga ega ekanligi ma’lum. Tilshunoslikda «sistema» va «struktura» tushunchalarining mazmuni qorishtirib yuborilmasligi lozim. Sistema o’zaro bog’liqlikdagi elementlar majmuasidan iborat bo’lib, bu majmua yaxlitlikni tashkil qiladi va undagi ishtirokchilarning har biri alohida hamda o’zaro munosabatda tavsiflanadilar. Struktura esa ushbu sistemadagi elementlarning munosabatlari asosida yuzaga keladigan tuzilmadir. Sistema va struktura tushunchalarining shu yo’sindagi ta’rifi O.Axmanovanning lisoniy atamalar lug’atida ham o’z aksini topgan (Axmanova 1969: 412-413; 458).

1. Lug’atda «sistema»ga til birliklarining botiniy tarkibdagi majmuasi deb qaraladi. Bu birliklar turg’un (invariant) munosabatlardadir, masalan, ushbu til uchun xos bo’lgan va nutqiy qurilmalarni hosil qiluvchi sintaktik qoliplar to’plami. Ushbu ta’rif tilning fonetik tizimini so’z va morfemalarni farqlash uchun xizmat qiluvchi nutq tovushlari to’plami sifatida aniqlashga undaydi. Xuddi shuningdek, ushbu til yoki lahja uchun xos bo’lgan gap va qoliplarini quruvchi so’z shakllari to’plami grammatik tizimni tashkil qiladi. Ifoda planiga kiruvchi farqlar umumlashmasiga esa semiologik tizim sifatida qaraladi. O.S.Axmanova «sistema» tushunchasi doirasiga, shuningdek, grammatik kategoriyani ifodalovchi shakllar va shakl (forma) yasash paradigmasi kabilarni ham kiritadi.

2. Lugʻatda «struktura» tushunchasiining mazmuni quyidagicha izohlanadi: 1) tilning tovush, fonologik, morfologik va morfonologik tarkiblariga xos boʻlgan umumiy, invariant xususiyatlarning bir-biri bilan bogʻliqligi, yaʼni quyi sath birliklarining yuqori sath birliklari tuzilishi ishtirokiga nisbatan. Bu holda «tovush strukturasi», «leksik struktura», «morfologik struktura» atamaları qoʻllaniladi; 2) struktura atamasiining ikkinchi maʼnosi «gap strukturasi», «soʻz strukturasi», «maʼno strukturasi» kabi birliklarda namoyon boʻladi (Axmanova 1969: 458). Praga lingvistik maktabida «struktura» atamasi ancha tor mazmunda talqin qilinadi. Praga lingvistik lugʻatida berilgan taʼrifdan maʼlum boʻladiki, ushbu tushunchani O.S.Axmanova ajratgan birinchi maʼnoda qoʻllab boʻlmaydi: «Til strukturasi» tushunchasi «soʻz-gap»ga nisbatan mavjud boʻlgan barcha faktlarni qamrab oladi. Bu gapning umumiy tuzilishi yoki umuman maʼlum tilning grammatik tuzilishi boʻlish mumkin. Umumiy grammatik tizim bir qator alohida tizimlarda namoyon boʻladi. Shu sababli tuslanish sistemasi, turlanish sistemasi, fonologik sistema haqida gapirilib, «struktura tushunchasini til grammatik qurilishining umumiy xususiyatlarini atash uchun saqlashadi» (Vaxek 1964: 218).

Xullas, sistema va struktura tushunchalari aynan bir hodisa emas. Lekin bu farqqa har doim ham eʼtibor berilavermaydi. Koʻpincha ular sinonimlar sifatida qoʻllaniladi. Buni, masalan, quyidagi ikki taʼrifni qiyoslaganda sezish mumkin. Birinchi turdagi taʼrifda sistema va struktura tenglashtiriladi, biri ikkinchisining yigʻindisi sifatida qaraladi. Masalan, E.Kosernuning yozishicha, «til oʻzaro bogʻliq strukturalar sistemasidir» .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. – Стр. 608.
2. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил курилиши: тахлил методлари ва методологияси. – Тошкент, 2007. –Б. 40.
3. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. –М.: Изд-во Ан. 1963, т.1. – Стр. 384.
4. Ельмслев Л. Понятие управления. Метод структурного анализа в лингвистике. Язык и речь. // В.А.Звегинцев. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. – М.: Просвещение, 1965. –Стр. 101-120.
5. Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, ч. II. –М., 1960. –Стр. 153-171.
6. Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка. – Иркутск: Иркут. обл. типография № 1, 2001. – Стр. 261.
7. Косерну Э. Синхрония, диахрония и история. (Проблема языкового извлечения) // Новое в лингвистике. Вып. 3. –М., 1963. – Стр. 172.
8. Макеева М.Н., Целенко Л.П. Оказиональный символ как смыслообразующая единица текстопостроения. Негтспейс т Яизз1а. У.1. 1998. Ёйр: // шпуегзйу. йсгзи.ги/.
9. Пирс Ч.С. Логические основания теории знаков / Пер. с англ. В.В.Кпрюшенко, М.В.Колопотина, Послесловие В.Ю.Сухачева. – СПб.: Лаборатория метафизических исследований философского факультета СПбГУ; Алетейя, 2000. – Стр. 352.
10. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. – М.: ИИЛ, 1957. – Стр. 286.
11. Смирницкий А.И. Морфология английского языка. – М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1959. – Стр. 440.
12. Степанов Ю.С. Имена, предикаты, предложения. –М.: Наука, 1981. –Стр. 360;
13. Степанов Ю.С. В трехмерном пространстве языка: Семиотические проблемы лингвистики, философии, искусства. –М.: Наука, 1985. –Стр.335;
14. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. 2-е изд., и доп. –М.: Академический проект, 2001. – Стр. 990.
15. Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – Стр. 696;
16. Соссюр Ф.де. Заметки по общей лингвистике. – М.: Прогресс, 1990. – Стр. 280.

- 17.Хэррис З.С. Метод в структурной лингвистике // В.А.Звегинцев. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, ч. II. –М., 1960. –Стр. 153-171; 1965. – Стр. 237-255.
- 18.Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 10, 1974. – Стр. 428.
- 19.Щерба Л.В. Культура языка // Вестник Московского университета. Серия 19.Лингвистика и межкультурная коммуникация. –М., 2000. –№2. –Стр. 114-119.